# ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG`LIQLIGI

***Eshmirzayeva Marjona Xolmo`min qizi***

***Amrilloyeva Nigora Alisher qizi***

*DTPI Boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 1- bosqich talabalari*

*emarjona032@gmail.com*

*Tel:+998 997442908*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada psixologiya nima ekanligi, qaysi davrga tegishliligi, pedagogika va psixologiyaning qay yo`sinda bog`liqligi va ushbu sohada olib borilayotgan ishlar haqida yoritilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Psixologiya, pedagogika, ta`lim yo`nalishi, kognitiv, emotsional, yangi metodlar, zamonaviy psixologiya.*

Zamonaviy psixologiya o`quvchilarning intellektual va emotsional rivojlanishini tahlil qilib, pedagopgik jarayonlarda samarali metodlarni ishlab ishlab chiqishda yordam beradi. Masalan, Piaget, Vygotsky kabi psixologlarning ta`lim jarayonida rivojlanish nazariyalari pedagogikaga asosanadi.

Psixologiya ta`limida individual yondashuvining muhimligini ta`kidlaydi. Har bir o`quvchining kognitiv va emotsional xususiyatlarini inobatga olish, pedagogik amaliyotda o`quvchilarning o`ziga xos xususiyatlarini to`g`ri baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Psixologiya motivatsiya nazariyalarini ishlab chiqadi, bu esa ta`limda o`quvchilarning o`rganishiga bo`lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Psixologiya ijtimoiy o`zaro aloqalar va guruh dinamikasini o`rganadi. O`qituvchilar o`quvchilarning ijtimoy emotsional rivojlanishiga ta`sir ko`rsatishda muhim rol o`ynaydilar, bu esa pedagogik uslubni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy psixologiya o`quvchilarda stressni boshqarish, emotsional barqarorlikni saqlash bo`yicha tadqiqotlar olib boradi. Pedagoglar

o`quvchilarning psixologik salomatligini qo`llab-quvvatlashda muhim rol o`ynaydi. Zamonaviy psixologiya ta`limida yangi texnologiyalarni qo`llashning kognitiv va psixologik ta`sirini o`rganadi. Pedagogika esa bu texnologiyalarni samarali o`qitish usullariga integratsiya qilish bo`yicha yo`l-yo`riqlar beradi. Psixologiya ta`lim jarayonida yangi metodlar va uslublarni rivojlantiradi, masalan, faol o`rganish, tajriba o`rganish kabi uslublarni qo`llash ta`limida samarali natijani ta`minlaydi.

Psixologiya ilm-faniga asoslangan ta`lim metodlari, o`quvchilarning yoshi, psixologik holati va ehtiyojlariga mos keladi. Misol uchun, konstruktivistik pedagogik yondashuv, o`quvchilarning faol ishtirokini ta`minlab, psixologik jihatdan qulay o`qish muhitini yaratadi.

**Xulosa**

Zamonaviy psixologiya pedagogikaning samarali rivojlanishi uchun zarur bo`lgan ilmiy asoslarni taqdim etadi. Pedagogika esa psixologik bilimlarni amaliyotga tadbiq etib, ta`lim tizimini yaxshilashga yordam beradi. Pedagogika va psixologiya fikrlarimizni hamda ongimizni shakllantiradi deb o`ylayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati :**

**1.** L.S. Vygotsky - "Psixologiya v ta`lim" pedagogika va psixologiyaning o`zaro bog`liqligini o`rganishda muhim hissa qo`shgan.

**2.** D.B. Elkonin –"Ta`lim jarayonining psixologik asoslari" pedagogikada psixologiyaning o`rni va rivojlanishi haqida tushuncha keltirgan.

**3.** J.D. Mayer, P. Salovey-"Emotsional intellekt" emotsional intellektning ta`lim jarayoniga ta`siri haqida o`rganganlar.